

Dilobar XURRAMOVA,
Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchi
E-mail: dilobar@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent R.Saidova taqrizi asosida

ON THE PROVISION OF THE TERMS OF WASTEWATER AND ITS TREATMENT SYSTEM IN THE ANNOTATED DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Explanatory dictionaries are one of the major works of any linguistics in the field of lexicography, which reflect the wealth of the nation - the entire richness of the language, all stylistic words, and terms of various fields. This article deals with the provision of the terms wastewater and its treatment system in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language.

Key words: terminological lexicon, explanatory dictionary, biofilter, bioindicator, obpartov, obrez, effluent, discharge, effluent, wastewater treatment, reuse.

О ПОЛОЖЕНИИ СТОЧНЫХ ВОД И СИСТЕМЫ ИХ ОЧИСТКИ В АННОТИРОВАННОМ СЛОВАРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Толковые словари - один из важнейших трудов любого языкознания в области лексикографии, отражающий богатство нации - все богатство языка, все стилистические слова и термины различных областей. В данной статье рассматривается положение терминов "Сточные воды и система их очистки" в Толковом словаре узбекского языка.

Ключевые слова: терминологическая лексика, толковый словарь, биофильтр, биоиндикатор, обpartov, обрез, сточные воды, сбросы, стоки, очистка сточных вод, повторное использование.

OQOVA SUV VA UNI TOZALASH TIZIMI TERMINLARINING O'TIL DA BERILISHI XUSUSIDA

Annotatsiya

Izohli lug'atlar har qanday tilshunoslikning leksikografiya sohasida amalga oshadigan yirik ishlaridan biri bo'lib, unda umumxalq boyligi - tilning butun salobati, barcha uslubga xos so'z, turli sohaga oid terminlar o'z aksini topadi. Ushbu maqolada oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining O'TILda berilishi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: terminologik leksika, izohli lug'at, biofiltr, bioindikator, obpartov, obrez, oqova, oqiziq, oqindi, oqova suvlarni tozalash, qayta foydalanish.

Kirish. Taraqqiy etgan tillarning barchasida terminologik leksika umumiste'moldagi so'zlardan bir necha marta ko'p bo'lib, bunday ko'p sonli terminlarni tarjima, umumfilologik va izohli lug'atlarda aks ettirish, ularni qanday, qancha tanlab olish juda murakkab masala hisoblanadi. Izohli terminologik lug'atlarda terminlar muayyan sohada mavjud bo'lgan tushunchalarning ifodalovchisi sifatida qaralib, ular ko'pincha ensiklopedizm nuqtai nazaridan izohlanadi, ya'ni termin izohida tushunchaga xos barcha asosiy belgilarni ko'rsatish harakati kuzatiladi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, terminologik lug'atlar aksar hollarda tegishli soha mutaxassislari tomonidan tuziladi va bu mutaxassislar, avvalo, tushunchaning barcha belgilarini termin izohida aks ettirishga urinadilar, lekin so'zga xos lisoniy belgilarni deyarli e'tibordan chetda qoldiradilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Professor N.Mahmudov haqli ravishda "har qanday fanni o'rganish, o'zlashtirish uchun uning alifbosidan - terminologiyasidan xabardorlik zarur bo'lishi", "terminlar har qanday fan tilining asosini tashkil etishi haqidagi qoida bugun aksioma maqomini olib bo'lgan"ligini ta'kidlaydi. Olimlar ham fan tili muammosi, avvalo, terminologiya muammosi ekanligini qayd etadi. Bu borada lug'atchilik ishlarining jadal sur'atlarda rivojlantirilishi ijobiy natijalarga sabab bo'ladi.

Tarjima va izohli lug'atlarni tuzuvchi leksikograflar esa terminga birinchi navbatda so'z sifatida qarab, uni so'zga xos umumiy lisoniy belgilarni hisobga olgan holda izohlaydilar va izohda terminning mutaxassis tomonidan tayin qilingan barcha belgilarini emas, balki uning eng muhim, eng asosiy 1-2 belgisini aks ettirish bilan kifoyalanadilar. Har bir tilning izohli lug'atini tuzishda esa terminning tabiatini va uning umumtilga mansublik maqomini aniqlashga imkon beruvchi mezonlarni ishlab chiqish esa tor soha vakilining emas, balki muayyan tilning etimologik hamda leksik-semantik tizimini yaxshi biladigan, undagi "o'z" va "o'zga" unsurlarni ziyraklik bilan farqlay oladigan tilshunos-leksikograf olimning vazifasi hisoblanadi. O'zbek leksikograflari ham o'z faoliyatlarini davomida, ya'ni ikki tili va izohli lug'atlar tuzish jarayonida oldindan belgilab olingan rejalar, tuzilgan qo'llanma va yo'riqnomalarga rioya qilgan holda ish olib borganlar. "O'zbekcha-ruscha lug'at" tuzish bo'yicha qo'llanma, S.F.Akobirovning "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning chegaralari va manbalari haqida"gi maqolasi, "O'zbek tilining izohli lug'atini tuzish uchun qo'llanma", "O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma" tegishli lug'atlarni tuzish uchun ana shunday manba, asos bo'lib xizmat qildi. Ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tuzuvchilar uchun chiqarilgan qo'llanmada shunday deyilgan: "Terminlardan lug'atga keng qo'llaniladigan, o'rta va qisman oliy maktab darsliklarida, ilmiy-ommabop asarlarda, vaqtli matbuotda va so'zlashuvda ko'p uchraydiganlari kiritiladi". Tilshunos olim, akademik A.Hojiyev tomonidan ko'p jildli izohli lug'at tuzuvchilar uchun yozilgan yo'riqnomada esa bu ifoda yanada aniq va qisqa qilib berilgan: (izohli lug'atga) "Ko'pchilik qo'llaydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko'p qo'llanadigan terminlar... kiritiladi". O'zbek tilining har ikkala izohli lug'atiga terminlar, tanlab olishda mazkur qo'llanma va yo'riqnomalarda, boshqa qo'llanma va tadqiqotlarda berilgan tavsiyalarga qat'iy amal qilingan.

O'zbek tilining har ikkala izohli lug'atiga termin tanlashda, ularning chegara va miqdorini belgilashda yuqoridagi qo'llanma va yo'riqnomalarga imkon boricha rioya qilingan, shuningdek, boshqa tillardagi izohli lug'at tuzish tajribalaridan unumli foydalanilgan. Masalan, o'zbek tilining besh jildli izohli lug'atiga 60 ga yaqin fan, texnika, san'at va madaniyat sohalari, ularning tarmoqlaridan 17-18 mingdan ortiqroq termin (bunda sof terminlar ham, umumadabiy tilda qo'llanuvchi ko'p ma'noli so'zlarning terminologik ma'nolari ham hisobga olingan) tanlab olingan va tegishli darajada izohlangan, daliliy misollar (illyustratsiyalar) bilan ta'minlangan.

Turli sohalar kabi oqova suvlar, tozalash va undan qayta foydalanish inson hayotida muhim ahamiyatga ega sohalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-son "Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorga ko'ra xalqimizni toza va sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash hamda oqova suv xizmatlarini yaxshilash, ichimlik suv ta'minoti hamda oqova suv xizmatlari qamrovini oshirish, sohaning transformatsiya jarayonini jadallashtirish muhim masala etib belgilangan. Bu esa yangicha yondashuvlarni talab etadi va o'z navbatida bunday yangiliklar yangi terminlarning paydo bo'lishi, tilimizga kirib kelishi, sohada qo'llanilishi bilan ham xarakterlanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida oqova suv va uni tozalash tizimiga oid terminlarning berilishida har xillik mavjud bo'lib, bugungi kun lug'atchiligi jiddiy tadqiqotlar olib borishni va zamon talablariga moslashishni vazifa qilib qo'yadi.

2006-2008-yillar A.Madvaliyev tahriri ostida chop etilgan – "O'zbek tilining izohli lug'ati" da jami 62 ta oqova suv, uni tozalash tizimi sohasiga doir terminlar hamda 2 tomli O'TILda esa 52 ta oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari berilganligi aniqlab chiqildi. Bu terminlar aslida ingliz, lotin, yunon, fransuz, italian tilidan o'zlashib, so'ng rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgandir. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Lotin tilidan rus tili vositasida jami 6/2 ta: bioindikator, kanal, kanalizatsiya, kollektor, lotok;
2. Fransuz tilidan rus tili orqali jami 2/- ta: rezervuar, filtr
3. Italian tilidan rus tili orqali 1/- ta: truba;
4. Yunon tilidan rus tili vositasida 1/- ta: manometr;
5. Ingliz tilidan rus tili orqali 1/- ta: filtratsiya.

Shuningdek, 5 jildlida 10 ta, 2 jildlida esa 7 ta fors tilidan dastsho'y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash, xalqob hamda arab tilidan 4 ta hovuz, havza, iflos, kimyoviy to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga o'zlashgan terminlar mavjudligi aniqlandi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" (5 jildli)da qo'llangan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini ushbu sohaga daxldorlik darajasiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) asosan oqova suv va uni tozalash tizimida, qisman boshqa sohalarda ham qo'llanuvchi terminlar;
- b) oqova suv va uni tozalash tizimida ham, boshqa sohalarda ham baravar qo'llanuvchi terminlar;
- v) asosan boshqa sohalarda, qisman oqova suv va uni tozalash tizimida qo'llanuvchi terminlar.

Tadqiqotimiz obyekti oqova suv va uni tozalash tizimiga oid terminlar bo'lganligi bois lug'atlardan bu turdagi quyidagi terminlarni aniqladik:

Biofiltr, bioindikator, obpartov, obrez, oqova, oqiziq, oqindi, oqova, tindirgich, tindirmoq, truba, filtr, filtratsiya, filtrlamoq, hovuz, chiqindi, qoldiq, quyqa, quyqum, quyqindi, loyqa, iflos, panjara, cho'kindi, yuvindi, havza.

Ushbu terminlarning ayrimlari umumiste'molda ham keng qo'llaniladi. Shu sababli har ikkala "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ularga birorta terminologik sohaga mansublikni bildiruvchi leksikografik belgi (pometa) qo'yilmagan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" (5 jildli)da denotat tavsiflanar ekan, agar denotat narsa/predmet bo'lsa, izohda, avvalo, uning vazifasi, keyin asosiy belgilari, so'ngra qurilishi, tuzilish xususiyatlarini ifodalovchi semalar va oxirida qaysi turga mansublik semasi berilgan. A.Hojiyev tomonidan tayyorlangan va yuqorida eslatib o'tilgan "O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnoma"da belgilanganidek, bosh so'z va unga oid materiallar lug'at maqolasini tashkil etadi [1]. Lug'at maqolasini tashkil etuvchi komponentlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Lug'atning birliklari: a) bosh so'z; b) turg'un iboralar.
2. Etimologik ma'lumot.
3. Grammatik va uslubiy xarakteristika (uni qayd etuvchi belgilar).
4. Lug'at birliklari ma'nosini belgilash va qayd etish.
5. Izoh.
6. Tasdiqlovchi misol, illyustrativ sitatalar.

Denotat va uning ma'nosi (ma'nolari)ga beriladigan izoh har qanday lug'at maqolasining doimiy komponenti hisoblanadi. U, albatta, bo'lishi shart. Qolgan qismlar esa lug'at maqolasida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, terminlarda grammatik xarakteristikani qayd etuvchi belgining bo'lishi shart emas, chunki terminlar asosan nominativ xarakterda bo'ladi, ya'ni ular faqat ot turkumidagi yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Shuning bois terminlar uchun tuzilgan lug'at maqolasida grammatik xarakteristika belgilarini qayd etishning hojati yo'q. O'TIL(5 jildli) da kiritilgan ayrim sohaga oid misollarga murojaat qilamiz:

BIOFILTR [bio.. + filtr] Oqova suvlarni biologik yo'l bilan tozalaydigan inshoot. Atrof-muhit ekologiyasini yaxshilashda biofiltrning ahamiyati katta. "O'zME" [3,269 b.].

Ko'rinadiki, biofiltr terminiga berilgan izohda terminning quyidagi semalari qayd etilgan:

- denotatning vazifasini ifodalovchi sema: "oqova suvlarni tozalaydigan inshoot";
 - denotatning asosiy belgilarini ifodalovchi sema: "biologik yo'l";
 - denotatning qurilish, tuzilish xususiyatini ifodalovchi sema: "katta".
- "Tur" semasi: "inshoot"

BIOINDIKATORLAR, biologik indikatorlar, ko'rsatkichlar [bio.. + lot. sholso — ko'rsataman, aniqlayman] Miqdori va rivojlanish xususiyatlarining o'zgarishi orqali yashash muhitida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlar, sharoit yoki antropogen o'zgarishlardan darak beruvchi tirik organizmlar. Tabiiy muhitning ifloslanishi darajasini nazorat qilib borish bioindikatorlardan foydalanishning eng muhim tomonlaridan biri hisoblanadi. "O'zME" [3,267 b.].

- denotatning vazifasini ifodalovchi sema: "miqdori va rivojlanish xususiyatlarining o'zgarishi orqali yashash muhitida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlar, sharoit yoki antropogen o'zgarishlardan darak beruvchilar";
 - denotatning asosiy belgilarini ifodalovchi sema: "ifloslanish darajasini nazorat qiluvchi tirik organizmlar";
 - denotatning qurilish, tuzilish xususiyatini ifodalovchi sema: "har xil ko'rinishda".
- "Tur" semasi: "tirik organizm".

OBPARTOV [f. - suvni chiqarib yuborish; chiqarib yuborilgan suv] Suv havzalari va gidrotexnik inshootlarda partov suvni chiqarib yuborish uchun qurilgan maxsus inshoot; oqova. Obpartov va pastdagi tashlama ariqda gurkirab qamish o'sgan, uning mayin ukpari shamolda ipakday tovlanib hilpiradi. S.Nurov, Narvon. [3, 75 b.]

– denotatning vazifasini ifodalovchi sema: “Suv havzalari va gidrotexnik inshootlarda partov suvni chiqarib yuborish uchun qurilgan maxsus inshoot”;

– denotatning asosiy belgilarini ifodalovchi sema: “oqova suv”;

– denotatning qurilish, tuzilish xususiyatini ifodalovchi sema: “uzun va keng”.

“Tur” semasi: “inshoot”.

OQINDI: oqindi suvlar korxonaga yoki xonadonlar hovlisidan oʻtgan ariqlardan oqib chiqayotgan chiqindi suvlar yoki yogʻin suvlari. [3,179 b.]

– denotatning vazifasini ifodalovchi sema: oqindi suvlar korxonaga yoki xonadonlar hovlisidan oʻtgan ariqlardan oqib chiqayotgan chiqindi suvlar yoki yogʻin suvlari;

- denotatning asosiy belgilarini ifodalovchi sema: “yaroqsiz, kir, iflos”;

“Tur” semasi: “suyuqlik”.

OQIZIQ geol. Suvda erib va suv bilan birga oqib kelib oʻrnashgan mineral va organik jinslar. [3,178 b.]

– denotatning vazifasini ifodalovchi sema: “suvda erib va suv bilan birga oqib kelib oʻrnashgan”;

- denotatning asosiy belgilarini ifodalovchi sema: “erigan va oqib kelgan mineral va organik jinslar”;

“Tur” semasi: “moddalar, jinslar”.

OQOVA 1 Hovuz, ekinzor kabi joylarga bir tomondan kirib, ikkinchi tomondan chiqib ketadigan suv.

Oqova qilib sugʻorish ekinni egatlardan suv oqizib qoʻyib, miriqtirib sugʻorish.

2 Partov suv, chiqit, iflos suv. U qoʻlini yuvayotib, quvurga jildirab oqayotgan oqovaga tikilgan kuyi, beixtiyor xayolga toldi. N.Qilichev, Chigʻiriy.

3 koʻchma s.t. Boʻlib oʻtgan ishning qoldiq asari, oqibati. Bulturgi ishning oqovasi. Bu yoʻl-yoʻlakay uzoq davom etgan dar-gʻazab suhbatning sovibroq qolgan oqovasi edi, shekilli. A.Muxtor, Kumush tola. Garchand aynan shunaqa deb aytishmagan boʻlsa ham, gapning oqovasi shunga olib kelar edi. «Yoshlik». [3,181 b.]

Xullas, izohli lugʻatda sohaga mansub cheklangan miqdordagi terminlarning berilishi va izohlanishi sohaga doir eng zaruriy va umumiy tushunchalar bilan tanishishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Акабиров С.Ф. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях (на материале русско-узбекских и узбекско-русских словарей). АҚД.-Ташкент, 1969.- С.7-8.
2. Madvaliyev A., Oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017, 66-67-bet.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006, 680bet.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 3-jild. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007, 687 bet.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 5-jild. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008, 591 bet.
6. Dilobar Khurramova. On problems of wastewater and its treatment system terms. В АCADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (Т. 3, Выпуск 3, сс. 223–226). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10575361>
7. Дилобор Мухторовна Хуррамова. Лексико-семантическое поле "очистка сточных вод". Вестник магистратуры, 2023. – с. 78-80.
8. Dilobar KHURRAMOVA, Mukhtor KHURRAMOV, Sharifa GANIEVA, Zulqaynar NAZIROV. Energy and resource-saving method for enriching the waste water purified without sufficient purification with oxygen. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING. 2022. – с. 62-66.